

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNALOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarova Mohiniso

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-kurs 1-guruh magistranti

Shukurov Rustam Eshonqulovich

Ilmiy rahbar: Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda o‘yinlar vositasida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo‘llari, o‘yinlar asosida o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyat jarayoniga tayyorlash, uning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo‘llari va samaradorligini yanada takomillashtirish haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’limiy vaziyat, ijodiy faoliyat, o‘qitish, mashg‘ulot, boshlang‘ich ta’lim, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchi faoliyati, hamkorlikda o‘qitish.

Abstract: This article discusses ways to form the creative activity of primary school students through games, the development of students' creativity based on games, the preparation of primary school students for the process of creative activity, its pedagogical significance, student creativity. methods of development, ways, methods and effectiveness of organizing the creative activity of students on the basis of modern educational approaches.

Keywords: Educational situation, creative activity, teaching, lesson, elementary education, educational process, teacher, student, learning in cooperation.

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik – sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi.

Ta’limiy vaziyat o‘qituvchi tomonidan quyidagi tarzda tashkil qilinadi: kerakli material va ta’limiy obyekt ajratiladi, ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi, asosiy tushunchalar tanlanadi. Tadqiqotning umumiy obyekti, uning ma’nosini izlash, faoliyatning yangi usullari hamda turlarini izlash zarurati evristik vaziyatning asosi

bo'lishi mumkin. Zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o'qitishning yangi shakl usullarini qo'llash, ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo'llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o'z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo'yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o'yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida dars shakllarining o'yin usullari o'qitishning ma'lum bir paytida o'tkaziladi. XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni "qoniqish hosil qiluvchi" faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatidir.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga utomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir.

Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishga, yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani o'quvchi talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyati qanday bo'lsa, shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir. Yagona o'quv mashg'uloti, o'quv kursi bo'yicha tizimli mashg'ulotlar, evristik yo'naltirilgan faoliyat asosida sodir bo'ladi¹. Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo'yicha texnologik harakat bolalar ijodkorligi natijalarini ta'minlash yo'lidir. Quyida ba'zi evristik vaziyatlarga to'xtaladigan bo'lsak:

1. O'qituvchi vaziyatning asosiy ta'limiy obyektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an'ana, buyum va boshqalar) va bolalar uchun qiziqarli bo'lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o'rganilayotgan obyekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo'yicha o'ylashga yo'naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o'quvchilarga qo'yiladigan ta'limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma'lum bo'lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta'limiy ko'tarinkilik hamda o'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo'ladi. Topshiriqning ta'riflanishi muammoni jamoa bo'lib muhokama qilishning natijasi bo'lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta'riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o'qituvchi uchun yangilik bo'lsagina maqsadga erishilgan bo'ladi.

3. O'quvchining o'zi paydo bo'lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta'lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. O'quvchilarning ta'limiy ijod namunalari namoyish etish: she'rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta'riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoaga muhokama etib, ko'rgazmalar tashkil etish, o'zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta'limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta'riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

¹ X.Ибрагимов, Ш. Абдуллаева . Педагогика- Т.: “Фан”, 2004 й, 110-116 б.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatini tashkil etish. O'quvchilar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtayi nazarlarining o'zgarish sababalarini tushunishlarida ko'maklashiladi. Ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

7. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullarni, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish, o'quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashishi. Jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarini aniqlash.

O'qituvchi ta'limiy vaziyatlarning davomiyligi o'zgarib turadi, ular o'zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo'lishi mumkin. o'qituvchi vaziyatlar tamoyillarida o'qituvchi ta'limni tashkil etish darajasi:

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahlilii natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4-sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og'zaki so'rash; yozma ishlar o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning "O'qish" darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o'rganilishi va o'qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo'li, ayniqsa, quyi sinflarda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilova N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans
2. Расулова З. Замоновий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнларини ривожлантиришининг муҳим омили сифатида. Science and Education. (2021).
3. Дилова Н.Г. Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. (2014).
4. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития

творчества учащихся. Вестник науки и образования. (2020).

5. Dilova N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. (2021).

6. Dilova N.G. Ajdodlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim- tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. (2021).

7. Расулова З.Д. Компьютер воситасида технология дарслари самарадорлигини ошириш. Science and Education. (2021).

8. Дилова Н.Г. Бошланғич таълимда ўқувчиларда шахслараро муносабатларга киришиш кўникмаларини шакллантириш имкониятлар. Science and Education. (2021).

9. Расулова З. Бўлажак технология фани ўқитувчисининг билим, кўникмасини ривожлантиришда дастурий таълим воситаларининг ўрни. Science and Education.. (2021).

10. Дилова Н.Г. Шахслараро муносабатларга асосланган таълим жараёнини моделлаштириш. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 534-546 бетлар. (2021).

11. Расулова З.Д. Инновацион педагогик технологиялар асосида олий таълим муассасаси ўқув жараёнларини такомиллаштириш мазмуни. Science and Education. (2021).

12. Дилова Н.Г. Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. (2021).

Расулова З. Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. (2021).